



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MOERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Maddrid, Spain, 2024. Issue 1

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MOERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





SIRDARYO VILOYATIDA YER RESURSLARINING DINAMIK O'ZGARISHLARI

Bobojonov Nurimon Shaxriyor-o'g'li

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,
talabasi

nurimonbobojonov@gmail.com

Annotatsiya: Sirdaryo viloyatida yer resurslarining shakllanish dinamikasi, hududiy tarqalishi, mineralogik tarkibi, ratsional foydalanishda antropogen omillarning yer resurslariga ko'rsatayotgan ta'siri va oqibatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tabiiy sharoit, tabiiy geografik komponentlar, yer resurslari, yer bonitrovkasi, yerdan ratsional foydalanish, muhofaza qilish, yechim va istiqbollari, inson omili.

Abstract: The dynamics of the formation of land resources, territorial distribution, mineralogical composition, the impact and consequences of anthropogenic factors on land resources in the rational use of land resources have been analyzed.

Key words: Natural conditions, natural geographical components, land resources, land surveying, rational use of land, protection, solutions and prospects, human factor.

Аннотация: Проанализирована динамика формирования земельных ресурсов, территориальное распределение, минералогический состав, влияние и последствия антропогенных факторов на земельные ресурсы при рациональном использовании земельных ресурсов.

Ключевые слова: Природные условия, природно-географические компоненты, земельные ресурсы, межевание, рациональное использование земель, охрана, решения и перспективы, человеческий фактор.

Kirish. Keyingi yillarda yer tanqisligi muammosi ko'pgina davlatlarda olimlarni va muhandislarni aholining yerga bo'lgan talabini ta'minlash yo'llarini axtarishga majbur qilyapti. Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishida yer resurslari va ularning holati, yerlarni avaylab asrashga, himoyalashga, undan oqilona foydalanishga katta e'tibor berishni talab etmoqda. Shundan kelib chiqib Respublikamizning barcha hududlarida yer resurlardan foydalanishni chuqur tahlil qilib o'rganib borish va mavjud muammolarni hal qilishga doir taklif, tavsiyalar berish lozimdir. Yer resurslaridan foydalanish va uni hududiy tashkil etish, birinchi navbatda, mamlakatimiz aholisi va xo'jaligi ehtiyojlaridan kelib chiqib

takomillashtirilmoqda. Sirdaryo viloyati va uning hududlarida yerlarning hozirgi holati, yerlardan foydalanishning yillar bo'yicha o'zgarishini tahlil qilishdan iboratdir. Yerlarni ishlatishda to'la foydalanilmayotgan imkoniyatlardan biri mintaqalarning tabiiy – agrar imkoniyati bo'lib, qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni tahlil qilish joyning shu imkoniyatlaridan qanday foydalanayotganligini baholash orqali amalga oshirishdir.

Asosiy qism. Sirdaryo viloyati tabiiy geografik jihatdan asosan, to'lqinsimon tekislik bo'lib, janubidan shimoliy g'arbga tomon pasayib boradi. Mirzacho'l dashtining bir qismi viloyat hududiga kiradi. Hududning shimolida 230 m, markaziy qismida 400 – 450 m, janubiy va janubiy g'arbida 600 – 650 m. Sharqida keng Sirdaryo vodiysi joylashgan. Mezozoy va kaynozoy davrida, asosan, cho'kindi jinslarning qalin qatlami bilan qoplangan. Sho'ro'zak, Mirzarabot, Sardoba kabi botiqlar mavjud. Tekislik qismi daryolar oqizib keltirgan yotqiziqlardan hosil bo'lgan, ba'zi joylarini ko'l, botqoq va sho'rxok yerlar egallagan. Sirdaryo viloyatida yangi kanallar, zovurlar qazilib, cho'l o'zlashtirildi va ekin maydonlariga aylantirildi. Tekislik qismida irrigatsiya inshootlari qurilib, paxtazor, bog' va tokzorlar barpo qilindi. Adirlar lalmikor yerlar va yaylovlardan iborat.

Viloyat yer resurslarining muhim xususiyatlaridan biri, tabiiy komponentlarning tuzilishi, rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqliqligi va aloqadorligi bir butunlikni hosil qilgan. Shu bilan birga viloyat hududining geomorfologiyasi murakkab hududiy tabaqalangan bo'lib, turli katta – kichiklikdagi relief shakllari va tabiiy geografik komplekslardan tashkil topgan. Bu o'z navbatida hududning gidrologik rejimi boshqa asosiy komponenti bo'lgan orografik tuzilishi, meteorologik birliklar, yer po'sti, o'simlik bilan qoplanganlik kabi to'g'ridan to'g'ri ta'sir etishning tabiiy geografik mahsuli hisoblanadi. Viloyatda suv resurslarning tarqalish qonuniyatlarida iqlim komponentlari ancha harakatchan va aralashuvchidir. Hududning joylashish qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda suv resursi havo kabi boshqa komponentlar (tog' jinslari, tuproq, o'simlik, xayvonot) tarkibiga kirib borib, landshaftlararo modda va energiya almashinish jarayonida faol tashuvchi vosita hisoblanadi.

Viloyatda yerlardan foydalanishning kichik hududlar doirasida iqtisodiy geografik jihatdan tahlil qilish va o'rganishdan iborat. Bu o'rinda tanlab olingan Sirdaryo viloyati yer resurslari va ularning hozirgi holatini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish, o'rganish, mavjud yerlardan foydalanishi tuman hududlardagi yerning holatini ochib berish orqali taklif va tavsiyalar berishdan iboratdir. Uning vazifasi esa yer resurslaridan foydalanish jarayonida sug'oriladigan, lalmi va boshqa yerlarning holatini tahlil qilish va o'rganish, mavjud ayrim muammolarni ochib berishdir. Bu o'zgarishlarning sabablaridan biri qishloq xo'jaligi yerlarining geoeologik xo'jalik jihatidan



zo'riqish darajasining ortib borishidir. Shu bois, bu jarayonning hududiy tarkibini o'rganish, baholash va me'yorlashtirish qishloq xo'jaligida yerlardan foydalanishni hududiy tashkil etishni takomillashtirishning asosiy shartlaridan biridir. Buning uchun miqdoriy ko'rsatkichlar yordamida qishloq xo'jaligi antropogen bosimi va sifat ko'rsatkichlari yordamida landshaftlarning tabiiy himoyalanganlik darajasi tahlil qilinadi.

Sirdaryo viloyatining 2021 – yil 1 – yanvar holatiga tuzilgan yer hisoboti bo'yicha viloyatning umumiy foydalanishidagi yer maydoni 3690 052 gektarni tashkil etib, shundan jami sug'oriladigan yerlar 227 816 gektar. Jami xaydaladigan ekin yerlar 245 533 gektar, shu jumladan sug'oriladigan ekin yerlar 227 816 gektar. Ko'p yillik daraxtzorlar jami 7 331 gektar, shundan bog'zorlar 1 761 gektar, uzumzorlar 72 gektar, tutzorlar 350 gektar, ko'chatzorlar 100 gektarni tashkil qiladi. Yaylovlar 18 645 gektarni, jami qishloq xo'jaligi yerlari 281 092 gektarni tashkil etadi. Viloyatda tabiiy sharoitning noqulay kelishi, aholi sonining yildan yilga ortib borishi, yerlarga bo'lgan talabning ko'payib borishi, aholida ekologik ta'lim tarbiyaning yo'qligi, ekologik savodsizlik natijasida tabiatga bo'lgan salbiy ta'sirning kuchayishi, suv va yerdan noto'g'ri foydalanishi kabi ko'plab salbiy omillarning ta'siri natijasida yer resurslari unumdorligi kamayib ko'plab yerlar ishdan chiqmoqda. Natijada viloyatda bir yilda 2021 – yilda 2020 – yilga nisbatan quyidagi o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan: jami haydaladigan ekin yerlar 547 gektarga kamaygan, shundan, sug'oriladigan ekin yerlar 224 gektarga ko'paygan (ko'payish sababi sug'oriladigan ko'p yillik daraxtzorlar buzilib suvli ekin yer turiga o'tkazildi), lalmi ekin yerlar 70 gektarga kamaygan (kamayish sababi ushbu maydonlar o'rnida bog' va tokzorlar barpo etilganligi uchun lalmi ekin yerlidan ko'p yillik daraxtzor turiga o'tkazildi). Ko'p yillik daraxtzorlar jami 170 gektarga ko'paygan, shundan bog'zorlar 65 gektarga, uzumzorlar 50 gektar, mevali ko'chatzorlar 55 gektarga ko'paygan (sababi lalmi va yaylov yerlar hisobidan bog', tok va mevali ko'chatzorlar ekilgan va ushbu maydonlar ko'p yillik daraxtzor turiga o'tkazildi). Tutzorlar 37 gektarga kamaygan, ya'ni yaroqsiz tutzorlar buzilib yer maydoni ekin yer turiga o'tkazilgan. Yaylov yerlar 1 578 gektarga kamaydi (bunga sabab ushbu maydonda bog' – tok ekilgan va ushbu yaylov yerlar ko'p yillik daraxtzor turiga o'tkazildi). Jami qishloq xo'jaligi yerlari o'zgarishsiz qoldi.

Bunday holat o'z – o'zidan mavjud suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni tashkil etish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligi inshootlari texnik holatini yaxshilash va ularni modernizatsiya qilish, suvni tejash texnologiyalarini keng ko'lamda joriy etish, suv xo'jaligi tashkilotlarining texnik bazasini mustahkamlash, suv iste'molchilari uyushmalari faoliyatini yanada yaxshilash, soha mutaxassislarining malakasini oshirishga qaratilgan islohotlarni taqozo etadi.



Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tegishli huquqiy asoslar yaratilishi zarur bo'ladi.


O'ziga xos demografik vaziyat shakllangan viloyatda yerdan foydalanishni hududiy tashkil etishda tabiiy va iqtisodiy sharoit bilan teng asosda demografik xususiyat ham hisobga olinishi kerak. Sababi – joylarda yerlardan foydalanish tizimi, eng avvalo, hududning demografik sig'imi va salohiyati bilan bog'liq. Murakkab iqtisodiy – demografik sharoit, odatda, yerdan intensiv foydalanishni talab etadi. Bu esa, aksariyat holatlarda ijtimoiy – ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Asosiy boyligimiz bo'lgan sug'oriladigan yerlarimiz kam bo'lishiga qaramasdan uning maydoni kengayishiga emas balkim qisqarishda davom etmoqda, chunki aholi sonini oshishi sug'oriladigan yer maydonlariga bo'lgan talabni oshiradi. Viloyatda umumiy yer maydoniga nisbatan sug'oriladigan yerlar 53 % ni tashkil etmoqda. Viloyat yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishda bu yerdagi mavjud xo'jalik sub'ektlarining ahamiyati kattadir. Tuman qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishda asosiy ishlab chiqaruvchi sub'ektlar ya'ni fermer, dehqon xo'jaliklari hamda qisman urug'chilikka ixtisoslashtirilgan xo'jaliklar, oila qudrati kabilarning ahamiyati kattadir. Shunday ekan, ushbu xo'jaliklarning tuman yer resurslaridan foydalanish jarayonlarini tahlil qilib chiqish lozimdir

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, Sirdaryo viloyatida yer resurslariga bo'lgan talab yil sayin oshib bormoqda. Chunki aholi soni qancha ko'payib borsa, yerga ehtiyoj shuncha oshib boraveradi, chunki inson uchun kerak bo'ladigan barcha narsalar aynan yerda bunyod etiladi. Shunday ekan viloyat va tumanlarda yer resurslarining holatini o'rganib borish maqsadga muvofiqdir. Viloyat yer fondida sug'oriladigan yerlar holati muhim hisoblanib, keyingi yillarda uning maydoni qisqarib bormoqda. Viloyat tumanlari ichida Oqoltin tumani ham qishloq xo'jaligi tamoqlari keskin rivojlanib borayotgan tumanlardan biridir. Bu tumanning yer holati, uning xo'jaliklar doirasida taqsimlanishi, undan foydalanish imkoniyatlari o'rganilib chiqib quyidagi xulosani berish mumkin. Yer resurslaridan foydalanishda dehqonchilik va yaylov chorvachiligida intensiv usulning mavjudligi qulay tabiiy sharoitning mavjudligi, iqtisodiy geografik jihatdan Samarqand-Toshkent yo'llari kesishgan nuqtada joylashganligi ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Chunki, qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlab transport orqali istalgan hududga yetkazish imkoniyati kattadir. Bu esa mavjud yer resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Keyingi yillarda viloyatda yer resurslaridan intensiv foydalanishda fermer xo'jaliklarining faoliyati asosiy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki yer haqiqiy egasini topdi, endilikda yerning ham sifat, ham meliorativ holatiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Ayniqsa yer resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishda organik o'g'itlar

miqdorini oshirish bilan, mahalliy o'g'itlar ya'ni chirindili moddalar, organik va kimyoviy o'g'itlar berish, ishlovni o'z vaqtida olib borish talab etiladi. Bunda tuproq tarkibi yaxshilanib yuqori hosil olish imkonini berish bilan birga yer holatini yomon tomonga o'zgarishini oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Alimov U. A., Sverchkova L. M., Arxeologicheskiye issledovaniya Sirdarinskoy obl., IMKU. Vip. 21, T., 1987.
3. Qudratov. S, Sardobalar o'lkasi, T., 2001.
4. Sirdaryo viloyat Statistika boshqarmasi.
5. Internet saytlari.





DEDEKTIV ASARLAR MAZMUN VA MOHIYATI

Xolmirzayeva Diyora Xatamboy qizi

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada detektiv adabiyotning mashhurligi sabablari, asar sujeti tuzilishining o'ziga xosligi va fantastik asar qahramonlari harakatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, detektiv asar qahramonlari (protagonist va antagonist) detektiv hikoyaning mashhur va esda qolarililigini ta'minlovchi vosita sifatida talqin qilinadi. Maqolada shuningdek detektiv asar qahramoni va u bilan kitobxon o'rtasida aloqa o'rnatish uchun foydalanilgan vosita va usullar keltiriladi.

Kalit so'zlar: detektiv, jinoyat, jinoyatchi, izquvar tergovchi, detektiv asar syujeti, qahramonlar xarakteri

Adabiyotning eng ko'p hamda sevib o'qiluvchi janrlaridan biri, shubhasiz, detektiv janridir. Detektiv adabiyot – jinoyatlarni ochish jarayoni tasvirlangan hikoya, qissa, romanlar. Bu janr asoschisi Edgar Allan Poe („The Murders in the Rue Morgue“ („Morg ko'chasidagi qotillik“) 1841; va boshqa novellalar). Detektiv adabiyot mumtoz asarlarida jinoyatning ochilishi mantiqiy asosda tasvirlanadi (A. K. Doil, K. G. Chesterton, E. Gaborio, A. Kristi, R. Staut). Janrning keyingi taraqqiyoti detektiv adabiyotda ijtimoiy-ruhiy motivlarning paydo bo'lishi (J. Simenon, Matsumoto Seytyo), qonun himoyachilarining jinoyatchilar dunyosi bilan bevosita kurashi tasvirlangan turli-tuman detektiv adabiyot paydo bo'lishi (D. Hammett, R. T. Chandler va boshqalar) bilan bog'liq.

Detektiv adabiyotni ayrim adabiyotshunoslar faqat oldi-qochdi harakatlardan iborat "hazmi yengil" asarlar yaratiluvchi yo'nalish, deb hisoblaydilar. Biroq, ushbu mulohazani mutlaqo noto'g'ri, asossiz ekanligini isbotlovchi bir qancha nodir asarlar mavjudki, ular detektiv adabiyot namunasi bo'lish bilan birgalikda, chuqur ruhiy-falsafiy g'oyalarni ham targ'ib qiladi. Xususan, adabiyotshunos va ijodkorlarning "Bozor adabiyoti yoxud badiiy so'z mas'uliyati" mavzusidagi davra suhbatida O'zbekiston xalq yozuvchisi Omon Muxtor: "Sarguzasht, detektiv tushunchasi bilan "yengil asarlar" degan bahoni yonma-yon qo'yish ham o'rinsiz. Yozuvchilarimizdan X.To'xtaboyevning qator asarlari, Tohir Malikning "Shaytanat" yoki Said Ravshanning "Qironcha" asarini qiziqib o'qiysan. "Ularni umri qisqa, tezda unutilib ketadi" deyolmaysan, ayrimlari o'n yil, yigirma yil, ayrimlari yarim asrdan buyon yashayapti. O'quvchiga bahramandlikdan tashqari, ma'naviy-ruhiy oziq ham beryapti"[1], deb ta'kidlaydi.

Detektiv asarlar adabiyotning muhim janrlaridan biridir. Ular nafaqat qiziqarli hikoyalar va sirli vaziyatlar bilan o'ralgan, balki inson tabiati, axloqiy



savollarva ijtimoiy muammolarni o'rganishga ham imkon beradi. Detektiv janr zamonaviy adabiyotning eng yosh va mashhur janrlaridan biri sifatida beqiyos madaniy kuchga ega. Lingvodidaktik nuqtai nazardan, ushbu janrdagi asarlar tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishga oid qabul qilish va yetkazish til ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga yordam beradi. Ular tanqidiy fikrlash va deduktiv xulosa chiqarish qobiliyatini yaxshilaydi. Detektiv asarlar ko'plab ilm-fan va maxsus yo'nalishlar hamda ko'nikmalarni qamrab oladi. Kriminalistika fani detektiv detektiv asar sujetini tuzishda qo'llaniladi. Chunki detektiv sujet tasvirida izquvar va tergovchilar haqiqiy sud ekspertizasi usullari va vositalaridan foydalangan holda sirli jinoiy ishni fosh qilish vazifasini bajaradilar.

Umuman olganda kriminologiya va u orqali adabiyotning detektiv janri yuridik tilshunoslik, psixologiya, psixolingvistika, pragmalolingvistika, sotsiololingvistika kabi fanlar bilan ham chambarchas bog'liq. Og'zaki va yozma nutq (keng ma'noda lingvistika) inson va uning atrof-muhitni idrok etish va tasvirlashga oid boy ma'lumot manbai bo'lib, undan jinoyatlarni tavsiflash va fosh etish, shuningdek jinoyatchilarni aniqlash va fosh qilish uchun foydalaniladi.

Detektiv asarlar o'quvchiga oxir-oqibat adolat g'alaba qozonishini ko'rish va his qilish uchun sirli jinoiy jumboq va tergov olamiga sho'ng'ish imkonini beradi. Detektiv janr bu ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi ziddiyatga asoslangan, jinoyatni ochish jarayoni aks etgan syujet tasviri sanaladi. Demak, har qanday detektivning ajralmas qismi jumboq yoki sirga aylanib, uning maqsadi va talqini jinoiy jumboqning yechimi yoki berilgan jinoyat sirini, jinoyatni fosh etishdir. [2]. Xuddi shu xususiyat mistik adabiyotga xosdir, ammo undan farqli o'laroq, detektiv asarda jumboq har doim mantiqiy asosga ega va bu jumboqning echimi ham aqliy va mantiqiy jarayonlar bilan bog'liq bo'ladi.

Har qanday detektiv asarning maqsadi sirli jumboqlarni yechish va shu yechim orqali jinoyatni fosh etish hisoblanadi. Detektiv asar mantiqiy jarayonning rivojlanish bosqichi bo'lib, unda protagonist faktlar ketma-ketligi orqali haqiqatga erishadi. Jinoyatni fosh etish detektiv hikoyaning yagona yechimidir. Biroq, asardagi yetakchi o'rin tergovga berilgan shu sababli asar qahramonlari tavsifi va ularning psixologik kechinmalari va his-tuyg'ulari ikkinchi darajaga ko'chiriladi. Ko'p xollarda jinoiy ish jumbog'i izquvar/tergovchi va kitobxon uchun ma'lum bo'lgan mantiqiy xulosalar yordamida hal qilinadi. [3]

Detektiv asar syujetida ikkita qarama-qarshi obraz tasvirlangan bo'ladi: salbiy obraz (jinoyatchi va uning hamrohlari), ijobiy obraz (tergovchi hamda uning yordamchilari). Ikkala tomon ham jinoyatni fosh qilish, ya'ni yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasiga olib keladigan bir qator voqea, hodisa va faktlar bilan bir biriga bog'langan. Shuni ta'kidlash lozimki, bazi

detektiv hikoyalarda asar qahramonlarini “yomon” va “yaxshi” toifaga bo‘linishi noto‘g‘riligi ma’lum bo‘ladi. Masalan, jinoyatchining o‘zi gumonlarni chalgitish uchun tergovchini yollashi hollatlari, tergov jarayonidan xabardor bo‘lish va zarur bo‘lganda tergovni noto‘g‘ri yo‘lga burish, yoki politsiya detektiv hikoyalarda, izquvarlardan biri jinoyatchilarning sherigi bo‘lib chiqadi. [4]

Tadqiqotlarga ko‘ra, detektiv asarlar adabiyotning mashhur va jozibali janri hisoblanib kelmoqda. Bu muvaffaqiyatning siri detektiv janrining doimiy rivojlanib, o‘zgarib, fan va texnika yutuqlari bilan hamohang tarzda takomillashayotganidadir. Ingliz detektiv romanlari rivojlanish tarixidagi bosqichlarni tahlil qilib detektiv asarning o‘zgarmas va o‘ziga xos xususiyatlar to‘plami mavjudligini aniqladik. Bularga jinoiy ish, qotillik, sirli jumboq, g‘ayritabiiy va ustun qadriyatlar majmuasi, maxfiy va an’anaviy xronotop va yaxshi va yomon obrazlar o‘rtasidagi qaramaqarshiliklar kiradi. Yuqoridagi adabiy belgi va xususiyatlar faqat klassik detektiv hikoyalarga taalluqli sanaladi. [5, 213] Zamonaviy detektiv hikoyalari “sirlilik va yopiqlik” tamoyili har doim ham ishlamasligi bilan ajralib turadi, chunki asar sujetida gumonlanuvchilar va ularning sheriklari soni cheklanmagan. Shuningdek detektiv hikoyalarda uchraydigan axloqiy-ruhiy holatlar tasviri va jinoyat sodir etish va fosh qilish vositalarining muntazam takomillashuvi janrning muvaffaqiyati kaliti hisoblanadi. Postmodern detektiv hikoyalari esa bir asarda mantiqiy tarzda birlashtirilgan inson ichki tuyg‘u va kechinmalariga urg‘u berilgan bir nechta adabiy janrlarning sintezi sanaladi. Shu sababdan ushbu turdagi hikoyalarda jinoyatning tasviri yashirin va ikkilamchi fenomen sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирвалиев С. Наср, давр ва қаҳрамон. –Тошкент.: Адабиёт ва санъат, 1983.-32 б
2. Kungl C. (2006) Xayoliy ayol detektiv personajini yaratish: Britaniyalik ayol yozuvchilarning izquvar qahramonlari,. Jefferson, N.C. : McFarland&Co., 207 b
3. Neuburg V. (2023) Ommaviy adabiyot: tarix va qo‘llanma, bosib chiqarish boshidan to yilgacha 1897. London : Woburn, 301 b.
4. Pykett L. (1996) “Mashxur roman” Oq kiyingan ayoldan oy toshigacha. Yozuvchilar va ularning ijodi (raqamsiz)”. Mississippi,. 542 b.
5. Kestner J. Britaniya (2010), Detektiv-fantastikasidagi erkak obrazi. 1880-1915. Farnham, Surrey : Ashgate Publishing,. 213 b.



LINGUISTIC FEATURES OF THE SHAHRIKHAN DIALECT

Islomov Ibratjon Inomjon o'g'li

Master of the direction of folklore and dialectology 2nd stage

Аннотация: в данной статье будет проведен лингвистический анализ профессиональной лексики Шахриханского диалекта Андижанской области. Изучается состав диалектной лексики, факторы, влияющие на ее формирование и современное использование. Он также фокусируется на региональных особенностях профессиональных терминов и понимании местной культуры через них. В данной статье будут проанализированы основные особенности данной лексики, факторы ее возникновения и применения.

Ключевые слова: городской диалект, профессиональная лексика, лингвистический анализ, региональная Лингвистика, культурное наследие.

Annotation: in this article, a linguistic analysis of the professional lexicon of the Shahrykhon dialect of the Andijan region is carried out. The composition of the vocabulary of Sheva, the factors affecting its formation and its modern application are studied. It also focuses on the regional characteristics of occupational terms and through them issues of understanding local culture. This article analyzes the main features of this lexicon, its factors of occurrence and application.

Keywords: Shahrykhon dialect, professional lexicon, Linguistic Analysis, Regional linguistics, cultural heritage.

The shahrykhan dialect is one of the most common dialects in the northern regions of Uzbekistan, in particular in the Andijan region. This dialect is of particular importance not only for its phonetic, morphological and syntactic aspects, but also for its distinctive vocabulary, including vocational lexicon. The vocational lexicon in the Shahri Khan dialect embodies the language and culture of the way of life of the local population. This article analyzes the main features of this lexicon, its factors of occurrence and application.

The vocational lexicon in the Shahri Khan dialect is not limited to words. The expressions used in the dialect reflect the complexity of the social life and labor activity of the people. Artisans in the city of shahrikhon express their work in a unique language, which serves the identity of the local culture.

Factors of the emergence of professional lexicon:

The professional lexicon in the shahrikhon dialect is largely formed by the following factors:

- The historical profession of the local people (for example, the centuries-old history of farming took a central place in the territory of Shahri Khan);
- Interaction with other dialects and languages around (for example, words from neighboring Kazakh and Kyrgyz languages);
- Regional climatic conditions and natural resources (for example, terminology related to horticulture and livestock);
- Words that have entered from other languages as a result of cultural and economic ties (for example, terms derived from Arabic, Persian, Russian).

Functional applications and modern trends:

The professional lexicon in the shahrikhon dialect occupies an important place in practical linguistics. It is widely used among the local people not only in everyday life, but also in cultural-historical works, folk oral creativity and Bayan style. Today, as a result of the introduction of modern technologies and new terms, some traditional lexical units are being forgotten. Therefore, it is an urgent task to study, document and maintain the local dialect lexicon on a scientific basis.

In addition, vocational terms in the Shahri Khan dialect are gaining new meaning on the basis of the requirements of the new era. For example, the introduction of new words related to agricultural techniques into the vernacular or the use of old terms in modern contexts is a clear example.

The vocational lexicon of the shahrikhon dialect is one of the riches of the Uzbek language and is a valuable object of research in regional linguistics. Its lexical wealth and originality contribute to a deeper understanding of the cultural heritage of the Uzbek people. In the future, it is necessary to carry out extensive scientific research in this direction, including an in-depth study of the variability and functional application of the local lexicon. This is important not only in linguistics, but also in preserving the historical and cultural heritage of the region.

Reference:

1. Mahmudov, Sh. (2010). O'zbek shevalari va ularning leksik xususiyatlari. Toshkent: Fan.
2. Abdullaev, M. (2008). O'zbek tili va uning leksik xususiyatlari. Toshkent: Akademiya.
3. Ergashev, E. (2015). Shahrixon shevasidagi kasb-hunar leksikasi. Tashkent: O'zbekiston.
4. Jumaniyozov, N. (2012). Shevalarning ijtimoiy hayotga ta'siri. Toshkent: Sharq.



Оценка физической подготовленности и технико-тактических действий борцов на поясах

Мирзабеков Иброхимжон Адхамжон ўғли
Андижанский Государственный Университет

Введение. Спортивная борьба в начале текущего столетия успешно преодолела глубокий кризис и надолго осталась в числе обязательных олимпийских видов спорта. Этому способствовала чрезвычайно энергичная деятельность руководителей UWW (Объединенный Мир Борьбы) организационно-методического характера, включая принципиальные изменения правил соревнований, направленных на повышение зрелищности борцовских состязаний. После введения правил соревнований и регламент поединков в 2005 году, соревновательная деятельность борцов на поясах стала существенно более активной и зрелищной. За последние годы проведены исследования, посвященные физической, технической подготовке борцов на основе интеграции тренировочных средств, то есть, тот или иной вид национальной борьбы сочетается со средствами вольной борьбы, самбо, греко-римской борьбы, дзюдо (Дашиноорбоев В.Д., 2000, Юшков О.П., 2000, Валеев Р.Г. 2007, Штырков И.С., Мирзакулов Ш.А., 2014) Одним из бурно развивающихся и приоритетных видов спорта является национальная узбекская борьба – белбогли кураш. По мнению Мирзакулова Ш.А., 2014, Мирзанова Ш.С., Ишмухамедова Т.Р. 2014 сила одно из главных двигательных качеств курашиста. Недостаточное развитие суставно-связочного аппарата не позволяет в полной мере развивать технико-тактические свойства спортсмена, что в конечном итоге приводит к травмам. Авторами рекомендовано в тренировочном процессе увеличение процентного содержания заданий по совершенствованию скоростно-силовых упражнений, что в итоге приведет к достижению высоких спортивных результатов (Мирзанов Ш.С., Ишмухамедов Т.Р. 2014, Мирзакулов Ш.А. 2014, [5 6] Для развития скоростно-силовых способностей борцов рекомендуют применять круговую тренировку, причем комплексы входящих в нее упражнений отличаются в зависимости от периода тренировки (Холодов Ж.К., 2002, Зациорский В.М., 2009.; В.А.Абраменко, 2012 с.; Ципин Л.Л., Барникова – 2016. Проблемами современного вида борьбы на поясах является обеспечение спортивного отбора, физической и технико-тактической, координационной готовности к общеразвивающим и специальным упражнениям характерным для данного вида спорта. Спортивное мастерство в борьбе на поясах определяется, прежде всего, хорошим технико-тактическим арсеналом двигательных действий, базирующихся на физической, психофизиологической и



функциональной подготовленности спортсмена, обеспечивающих достижение успеха в процессе соревновательного поединка. Следует отметить, что в распоряжении тренера практически нет средств и методов, позволяющих четко дать прогноз о перспективности спортсмена в избранном виде спорта. Исходя из этого, представляется перспективным, изучение особенностей физической подготовки курашистов в поясной борьбе на этапе спортивного совершенствования, нет данных о взаимосвязи функциональной подготовленности с показателями физической подготовленности, слабо разработаны пути совершенствования технико-тактических показателей. В данном параграфе дана оценка показателей физических качеств борцов, занимающихся борьбой на поясах во взаимосвязи со структурой их физической подготовленности.

Цель работы. Исследования проведены в Андиганском колледже олимпийского резерва. Проведено педагогическое тестирование 39 спортсменов, специализирующихся в борьбе на поясах, имеющих спортивные квалификации - I разряд, кандидатов в мастера спорта. Наиболее информативными для контроля физической подготовленности борцов на поясах являются следующие 11 тестов: комплексное упражнение на борцовском мосту, пять бросков подворотим (через спину), 10 приседаний с партнером на плечах (с), броски манекена в переменном темпе в течение 5-ти минут, лазание по канату, подтягивания на перекладине за 10 с, динамометрия разгибателей бедра, динамометрия кисти, становая сила мышц разгибателей спины, Гарвардский степ-тест, МПК – максимальное потребление кислорода. Нами разработаны нормативные шкалы для оценки уровня физической подготовленности квалифицированных борцов на поясах по пятибалльной системе представленные в таблице №1. В данном исследовании оценка результатов тестирования проводилась на основе анализа динамики показателей в тестах, а также путем сравнения полученных при тестировании данных с нормативными шкалами. Организация и проведение эксперимента по физической и технической подготовке борцов на поясах проводилась на основе разработанной экспериментальной программы. Необходимо констатировать, что все выполненные спортсменами тесты демонстрирующими по технико-тактическим показателями оценены на «удовлетворительно». В основном – это наиболее часто выполняемые технико-тактические действия, выполняемые борцами на поясах: комплексное упражнение на борцовском мосту (с), пять бросков подворотим (через спину) – с; подтягивания на перекладине за 10 с – кол-во; броски манекена в переменном темпе течение 5-ти минут (кол-во), 10 приседаний с партнером на плечах (с), броски до «отказа» в темпе 1 бросок за 4 с (мин., с.).

Результаты и обсуждение. Необходимо констатировать, что все выполненные спортсменами тесты демонстрирующими по технико-тактических показателей оценены на «удовлетворительно». В основном – это наиболее часто выполняемые технико-тактические действия, выполняемые борцами на поясах: комплексное упражнение на борцовском мосту (с), пять бросков подворотом (через спину) – с; подтягивания на перекладине за 10 с – кол-во; броски манекена в переменном темпе течение 5-ти минут (кол-во), 10 приседаний с партнером на плечах (с), броски до «отказа» в темпе 1 бросок за 4 с (мин., с.).

Из специальных двигательных качеств использованы лазание по канату (с), и подтягивания на перекладине за 10 с (кол-во), подтягивание на перекладине – кол-во также оценены на «удовлетворительно». Низкие аэробные возможности организма по МПК (48,3 мл/кг/мин) подтверждаются по результатам бега на 2000м, значение которого составило - 7.02с. Особо следует отметить силовые качества, которые были продемонстрированы во всех трех тестах – сила мышц кисти, сила мышц разгибателей бедра, становая сила мышц разгибателей спины показавшие результаты, соответствующие на оценку «хорошо» согласно показателям нормативной шкалы.

Нормативная шкала для оценки физической и функциональной подготовленности квалифицированных борцов на поясах

Тесты и единицы измерения	Оценки				
	Отлично М+1,1 σ и лучше	Хорошо М+ (0,6-1,0) σ	Удовле- тельно М±0,5 σ	Плохо М- (0,6-1,0) σ	Очень плохо М- 1,1 σ
1. Комплексное упражнение на борцовском мосту (с).	15,2 и менее	15,3-16,2	16,3- 18,3	18,4- 19,3	19,4 и более
2. Пять бросков подворотом (через спину) – с.	7,00 и менее	7,01-7,47	7,48- 8,40	8,41- 8,87	8,88 и более
3. Лазание по канату – с.	4,72 и менее	4,73-4,86	4,87- 5,13	5,14- 5,27	5,28 и более
4. Подтягивания на перекладине за 10 с	10 и более	9	8	7	6 и менее
5. Броски манекена в переменном темпе в течение 5-ти минут (кол-во)	63 и более	60-62	53-59	50-52	49 и менее
6. Подтягивания на перекладине	23 и более	21-22	16-20	14-15	13 и менее


(кол-во)					
7. Динамометрия разгибателей бедра (кг)	170 и более	165-169	156-164	151-155	150 и менее
8. Динамометрия кисти – кг.	59 и выше	56 -58	53 -55	50 -52	48 и ниже
9. Становая сила – мышцы разгибатели спины - кг	172 и выше	170,2	162	157	150 и ниже
10.МПК – максимальное потребление кислорода (мл/кг.мин) или л/мин (для борцов)	65 и выше	60-64	55-59	50-55	45 - 49
11. Гарвардский степ тест – ИГСТ – услов. единицы.	90 и выше	80-89	65-79	55-и выше	54 и ниже

Выводы. Оценка результатов педагогического тестирования проводилась на основе анализа индивидуальной динамики показателей в тестах, а также путем сравнения полученных при тестировании данных с нормативными шкалами. Затем для определения уровня спортивных показателей борцов на поясах методом парного сравнения проведено сопоставление полученных результатов по разработанной нами по пятибалльной шкале. При разработке показателей технико-тактических действий и функциональных показателей, соответствующих тем или иным баллам проведена экспертиза. В качестве экспертов явились признанные специалисты по поясной борьбе Мирзакулов Ш.А., 2014, Мирзанов Ш.С, 2014, 2018. Балловые расчеты осуществлялись согласно требованиям теории оценок и представлены в виде таблицы (Баландин В.И., Блудов Ю.М., Плахтиенко В.А. Прогнозирование в спорте. М., 1986).

Литература

1. Дашиноорбоев, В.Д. Особенности национальных видов борьбы у народов России, СНГ, Азии и их влияние на методику тренировки борцов вольного стиля: автореф. дис. ... д-ра пед. наук / В.Д. Дашиноорбоев; С.-Петерб. гос. акад. физ. культуры им П.Ф. Лесгафта. – Санкт-Петербург, 2000. – 46 с.
2. Штырков И.С. Технология двигательных действий у юных борцов на поясах на основе интеграции средств вольной борьбы 13.00.04 – Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки, оздоровительной и адаптивной физической культуры Автореферат диссертации на соискание уч. степени канд. пед. Наук. 2024. - С. 89-96.

3. Мирзакулов Ш.А. Белбоғли кураш назарияси ва услублари //Ўқув қўлланма. – Т., 2014. – 216 б.
4. Мирзанов Ш. Белбоғли курашга хос куч қобилиятини махсус тренажерларда ривожлантириш самарадорлиги ва уни компьютерлаштирилган ўлчов ускунаси ёрдамида баҳолаш афзаллиги // Фан – спортга, 2019, №3. – С.27-30.
5. Абраменко В.А. Методика специальной силовой подготовки квалифицированных борцов греко-римского стиля: автореф. дис... канд. пед. наук: 13.00.04/ В.А.Абраменко Московская Гос.Академия физ. культуры.-Малаховка, 2012. – 24 с.
6. Ципин Л.Л., Барникова - Биомеханика упреждений специальной направленности в избранном виде спорта /Учебное пособие “НГУ” 49.06.01 Физическая культура и спорт, Санкт-Петербург, 2016. – 67 с.





ОЗОН ҚАТЛАМИНИ ЕМИРИЛИШИНING ИНСОН САЛОМАТЛИГИГА ТАЪСИРИ

Усмонов Азизбек ХХХ

Андижон Машинасозлик институти

«Автомобилсозлик ва транспорт» факултети

«Транспорт логистикаси» йўналиши талабаси

+998999937328

Аннотация: Ушбу тезисда озон қатлами емирилиши ҳақида қисқача айтиб ўтилган ва буни олдини олишда ҳамда муҳофаза қилиш қисқача тушунтирилиб берилган.

Калит сўзлар: Аллотропик, Антарктида музлари, атмосфера шамоллари, илмий – техникавий, конвенсия.

Табиатда озоннинг мавжудлигини дастлаб 1785 йили Голландиялик олим М.Марум аниқлаган. Озон O_3 кислороднинг аллотропик модификацияси. Ўткир ҳидли ҳаво ранг газ бўлиб, $6-112^{\circ}C$ да суюқланади, кислород билан аралашмаси портлашининг концентрацион чегараси 20-48 фоиздир. У енгил парчаланади ($O_3 \rightarrow O + O_2$), кучли оксидловчи бўлиб, озонидлар ҳосил қилади. Ҳаводаги миқдори ёзда ҳажм бўйича $7 \cdot 10^{-6}$, қишда эса $2 \cdot 10^{-6}$ фоизгача боради, атмосферадаги максимал миқдори 20-25 километр баландликка тўғри келадик, қуёшнинг ультрабинафша нурларидан сақловчи қатлами шу масофада жойлашади. Озон қатлами туйнукларининг кенгайиши ва кўпайиб кетиши инсониятнинг энг янги глобал муаммоларидан биридир. Бу масалага 25 йил олдин британиялик олимлар жаҳон афкор оммаси эътиборини қаратдилар. Кўпчилик «осмондаги бир гап» дея эътибор бермаётган пайтда озон қатламининг аҳамияти, унинг она сайёрамиз ҳаётидаги ўрни нақадар муҳимлиги олимлар томонидан қайта-қайта исботланди. Озон қатламининг асосий қисми стратосферада, ер юзидан ўртача 15-50 км. баландликда жойлашган. Қутбларда эса бу бор-йўғи 8 км. баландликдан бошланади. 20-километрдан 25 км.гача оралиқдаги 5 км.да озон энг зич жойлашган. Жуда катта қатламни ташкил этса-да, озоннинг зичлиги жуда паст, агар у ер юзидаги ҳаво қадар зичлаштирилса, атиги 3,5 мм.ли жуда юпқа плёнка ҳосил бўлади. Шундай бўлса-да, озоннинг аҳамияти беқиёс. Озоннинг стратосферадаги умумий миқдори 3000 миллион тонна атрофида бўлиб, унинг 20-40 километр баландликдаги концентрацияси энг кўп бўлган майдонларда миллион қисмнинг ўндан бир қисмига ҳам етмайди. Олинган маълумотларга кўра антарктида музлари юзасида содир бўлувчи гетероген реакцияларда хлор оксиди NO_2 билан $ClONO_2$ ҳосил қилиб бирикади, кейин қатор моддалар парчаланади:



Атмосфера-шамоллари хлор углеводородларини ер кулрасининг барча қисмларига учуриб кетади. Шунинг учун Антарктида атмосферасида хлор қаердан келиши мумкин деган саволга тўхталмаса ҳам бўлади. Иқим ўзгариши тўғрисида БМТ нинг Доиравий Конвенцияси томонлари ва Мокреал протоколининг таклифларига жавобан озон қатлама ва глобал иқлим тизимини муҳофаза қилиш билан борасида тузилган махсус маъруза нашр этилди. Унда озон қатлами ва глобал иқлим тизимини муҳофаза қилиш билан боғлиқ яъни мураккаб илмий-техникавий фикр мулохазаларини киритувчи экологик масалалар бўйича қарорлар қабул қилш жараёнига тегишли маълумотлар келтирилган.


Фойдаланилган адабиётлар:

1. Sohibjon o'gli, S. J. (2024). O 'ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(4), 9-14.
2. Rafiqjon o'g'li, R. R., & Zakirovich, N. I. (2024). ELEKTROBUSLARNI JORIY ETISHDAGI ENERGIYANING TEJALISHI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 4(39), 170-175.
3. Rafiqjon o'g'li, R. R. (2024). ANDIJON VILOYATI YO 'LOVCHI TASHUVCHI AVTOTRANSPORT KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO 'LLARI. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(4), 20-24.
4. Shavkatjon o'g, T. U. S., & Rafiqjon o'g'li, R. R. (2024). SERQATNOV KOCHALARDA TRANSPORT VOSITALARINI HARAKATINI TARTIBGA SOLISH. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(4), 10-19.
5. Raximov, R. R., & Dexqonov, I. S. (2024). YO 'LOVCHILAR OQIMI VA YO 'LOVCHILAR OQIMINI O 'RGANISH USULLARI. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(4), 4-9.
6. Rafiqjon o'g'li, R. R., & Sohibjon o'gli, S. J. (2023). ANDIJON SHAHRIDA JAMOAT TRANSPORTI MUAMMOLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(6), 153-157.
7. Sohibjon o'gli, S. J., & Rafuiqjon o'g'li, R. R. (2023). TRANSPORT LOGISTIKASI TIZIMINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 25(1), 79-83.
8. o'g'Li, R. R. R., & o'g'Li, S. J. S. (2023). *Logistika Tiziming Transport Toshqil Etuvchisi. Ta'Limdagi Zamonaviy Muammolar Va Ularning Ilmiy Yechlari*, 7 (7), 27-33.



9. Raximov, R. (2023). AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO 'RSATUVCHI USTAXONASINI JORIY ERISH AFZALIKLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(1), 280-290.

10. Raximov, R., & Daminov, D. (2023). Transport Vositalari Detallari Resurslarini Kompyuterda Hisoblash. *Modern Educational System And Innovative Teaching Solutions*, 2(2), 75-82.



SONLAR TARIXI XUSUSIDA

Abdirayimov Anvarjon Oribjon o'g'li

University of Economics and Pedagogy

“Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim” kafedrası
assistent-o'qituvchisi.

Andijon davlat universiteti 3-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Ma'lumki, sonlar haqidagi ilk qarashlar qadimgi davrlarga, ya'ni ibtidoiy odamlar yashagan paytlarga borib taqaladi. Dastlab qadimgi odamlar oddiy arifmetik hisob-kitoblarni ham murakkab darajada amalga oshirishgan, ular, asosan, barmoqlardan foydalanishgan. Asta-sekinlik bilan insonning dunyoqarashi o'zgarishi bilan sonlar haqidagi tasavvurlar, ularning ko'rinishlari ham shakllana borgan. Mazkur maqolada sanoq usullarning ibtidoiy ko'rinishlari, shakllanish bosqichlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: raqam, arifmetika, ibtidoiy odamlar, matematika, matematik tasavvur, tarix, qadimgi xalqlar, madaniyat

Аннотация: известно, что первые представления о числах восходят к древним временам, то есть временам, когда жили первобытные люди. Первоначально древние люди выполняли даже простые арифметические вычисления на сложном уровне, используя в основном пальцы. Постепенно с изменением мировоззрения человека стали формироваться представления о числах, их проявлениях. В данной статье речь пойдет о примитивных проявлениях перечислительных методов, этапах их формирования.

Ключевые слова: число, арифметика, первобытные люди, математика, математическое воображение, история, древние народы, культура

Annotation: it is known that the first views on numbers go back to ancient times, that is, when primitive people lived. At first, the ancient people also carried out simple arithmetic calculations to a complex extent, they used, for the most part, fingers. Gradually, with the change in the worldview of a person, visions of numbers, their manifestations, also began to take shape. This article will talk about primitive manifestations of numerical methods, stages of formation.

Keywords: number, arithmetic, primitive people, Mathematics, Mathematical imagination, history, ancient peoples, culture

Sonlarning paydo bo'lishi uzoq tarixga ega. Arxeologik topilmalar va etnograflarning tadqiqotlari bizga qadimgi odamlarning dastlabki matematik bilimlarini baholashga imkon beradi. Xususan, “son va figuralar haqidagi ilk tasavvurlar paydo bo'lgan va shakllangan davr tosh asri – paleolitga to'g'ri

keladi”¹. Hali raqamlar paydo bo’lmagan kezlarda ibtidoiy odamlar turli obyektiv predmetlar (qo’l va oyoqning barmoqlari)dan sanoq, hisob-kitob uchun foydalanishgan. Jumladan, “mashhur sayyoh va olim B.Dobritsgoffer “o’rmon odamlari” hayotiga doir g’oyat qiziqarli ma’lumotlarni to’plashga muvaffaq bo’lgan. Kunlardan bir kuni sayyoh abipon oqsoqollaridan bir guruhining oldiga o’n dona bug’doy donini qo’yib, sanab berishlarini iltimos qilibdi. Ular bir, ikki, uchgacha sira qiynalmasdan sanashibdi. Keyin esa hisobni yo’qotib qo’yib, jim turaverishgan. Yovvoyi odamlardan ayrimlari bosh og’rig’ini bahona qilib, qochib qolishadi. Eng “dono”lari esa obdon o’ylab ko’rgach, “ko’p” yoki “son-sanoqsiz” deb xitob qilishgan”².

Sonlarni ifodalovchi belgi raqam ekanligi yuqorida aytili. “Raqam arabcha so’z bo’lib, “yozuv”, “bitish”, “son” ma’nolarini ifodalaydigan, miqdorni anglatadigan shartli belgidir”³. “O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”da raqamlar, ularning kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, “eng qadimgi raqam bobilliklar va misrliklar tomonidan ishlab chiqilgan. Misr ieroglif raqamida sonlarni ifodalash uchun maxsus rasm-belgilar, keyinroq ieratik va demotik yozuvlari paydo bo’ldi. Bobil raqamlari, asosan, 1, 10, 60 va 100 ni bildiruvchi mixxat belgilari bo’lib, boshqa barcha raqamlar shular asosida ifodalangan. Misr ieratik yozuvidan Yaqin va O’rta Sharqdagi barcha yozuvlar hamda Yunon-Ioniya yozuvi, shu bilan birga alifboga asoslangan raqam kelib chiqdi” (O’zME).

Manbalardan ma’lumki, “qadimgi odamlar oziq-ovqatlarini, asosan, ov qilish orqali qo’lga kiritganlar. Jumladan, butun qabila katta hayvonni – qo’tos (yumshoq yungli yovvoyi Shimoliy Amerika buqasi) yoki bug’uni ovlashi kerak edi: bu vaziyatda inson o’zi yolg’iz ovlay olmaydi. Odatda eng keksa va tajribali ovchi ovni boshqargan. O’lja chiqib ketmasligi uchun uni, o’ng tomondan besh kishi, orqadan yettita, chap tarafda esa to’rtta odam hech bo’lmaganda o’rab olish kerak edi. Bu holatda hisoblamasdan qila olishmagan! Va ibtidoiy qabila boshlig’i bu birinchi vazifani uddaladi. Inson “besh” yoki “yetti” kabi so’zlarni bilmagan o’sha kunlarda ham barmoqlarida sonlarni ko’rsatishi mumkin edi.

Yer yuzida hali ham sanashda barmoqlari yordamisiz bajara olmaydigan qabilalar bor. Beshning o’rniga “bitta qo’l”, o’nta – “ikki qo’l”, yigirmata – “butun odam” deyishadi – ya’ni, bu yerda oyoq barmoqlari ham hisoblanadi.

Demak, ibtidoiy odamlar sanoq sistemasini to’la anglab yetmagan davrlarda hisob-kitob uchun barmoqlardan foydalanganlar. Ularda qo’shish,

¹ Гильмуллин М.Ф. История математики: Учебное пособие. – Елабуга: Изд-во ЕГПУ, 2009. – С. 17.

² Кутлиева М. Рақамларда тақдирлар. – Т.:Янги аср авлоди, 2016. – Б.36.

³ Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеърларида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини (XII-XV асрлар). “Фан” нашриёти. – Тошкент, 2010. – Б. 4.

ayirish kabi matematik amallar ham mavjud bo'lgan, ularni esa o'ziga xos tarzda quyidagicha bajarishgan: barmoqlarni egish orqali qo'shishni, kengashtirish orqali esa ayirishni ifoda etishgan.

Asta-sekinlik bilan insoniyat rivojlandi, kundalik turmushda tub o'zgarishlar sodir bo'ldi, chorvachilik, dehqonchilik, qurilish sohalari paydo bo'ldi, rivojlana boshladi. Bu esa insoniyat tafakkurining yana bir bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Inson hayotida ko'p narsalar qatori sonlar ham o'zgardi. Ayniqsa, ularga munosabat o'zgardi. Endi inson yashash tarzida "sonlarsiz hayot" murakkablik tug'dira boshladi. O'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tilganda, qurilish sohaslarida, dehqonchilik, chorvachilik ishlarida, astronomik hisob-kitoblarda sonlarning o'рни ahamiyatli ekanligi yaqqol ko'ringan. Natijada odamlar mukammal hisoblash tizimini yaratish haqida o'ylay boshlaganlar.

Arifmetikaning ibtidoiy bosqichida odamlar uchun bir nechta sonlar yetarli bo'lgan, xolos.

Inson ongi, til va tafakkur rivojlangani sari ibtidoiy odamlarda sonlar miqdori ko'paya bordi, natijada sonlarni tasvirlay boshladilar: papirus poyalariga, yog'och va tosh ustunlarga, qabrtoshlarga yozildi. Bular hozirgi sonlarning ilk ko'rinishlari sifatida tarixda qoldi. Demak, mana shu jarayonlar ko'rsatyaptiki, "matematika tili" ancha avval, ibtidoiy odamlar davrida paydo bo'lgan.

Adabiyotlar:

1. Гильмуллин М.Ф. История математики: Учебное пособие. – Елабуга: Изд-во ЕГПУ, 2009.
2. Қутлиева М. Рақамларда тақдирлар. – Т.:Янги аср авлоди, 2016.
3. Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеърлятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини (XII-XV асрлар). "Фан" нашриёти. – Тошкент, 2010.



BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITLARIDA INVESTITSIYA SIYOSATINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Rasulova Sharifa Gaybullaevna

JizPl., Iqtisodiyot va menejment kafedrası dotsenti

Baxromova Bonu Tolmas qizi

JizPl., Qurilish muhandisligi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Biz bu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitlarida investitsiya siyosatining mohiyati va xususiyatlari, Investitsiyaning iqtisodiyotdagi o'rnini, uni tashkil etish va samaradorligi kabi investitsiya haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Аннотация: В данной статье мы обсудим сущность и особенности инвестиционной политики в условиях рыночной экономики, роль инвестиций в экономике, его организация и эффективность, у нас будет много информации об инвестициях.

Abstract: In this article, we will discuss the nature and characteristics of investment policy in the conditions of a market economy, the role of investment in the economy, its organization and effectiveness. We will have a lot of information about investment.

Kalit so'z: investitsiya, qurilish, kapital, iqtisodiyot, bozor, loyihalashtirish kredit, davlat.

Ключевые слова: инвестиции, строительство, капитал, экономика, рынок, проектный кредит, государство.

Key words: investment, construction, capital, economy, market, project credit, government.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya'ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan mamlakatdagi investitsion jarayonlarga bog'liq. Har qanday jamiyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir. Investitsiya turlari: Kapital investitsiyalar, innovatsion investitsiyalar, ijtimoiy investitsiyalar. Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiya quyidagicha tasniflanadi:

- Birlamchi (avaylangan) jamg'arilgan kapitalni ko'paytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik obyektlariga joylashtirish;
- Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

Investitsiyalar-bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapital. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalarga. Hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Investitsiya obyekti deyilganda, mablag'larni, yangi qonun doirasidagi barcha boyliklar safarbar qilinayotgan obyektlar tushuniladi, ular yangi korxonalar yoki amalda faoliyat yuritayotgan korxonalar, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, intellektual mulk va boshqalar bo'lishi mumkin. Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g'oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi. Investitsiya loyihasi tushunchasini uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Investitsiya siyosati-bu iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, markazlashgan investitsiya jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o'tish, ustuvor investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya'ni 63,8% i respublikaning olti hududida, jumladan, Toshkent shahrida 23,7%, Toshkent viloyatida 10,5%, Buxoro viloyati -8,4%, Samarqand viloyati - 7,4%, Navoiy viloyati - 7,2% va Qashqadaryo viloyatida 6,6% dan investitsiyalar o'zlashtirildi. 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahrida 13808,6 ming so'm (yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslaganda 110,8%), Navoiy viloyatida -11489,1 ming so'm (yoki 83,2%), Buxoro viloyatida - 7051,9 ming so'm (yoki 123,5%), Jizzax viloyatida - 6351,6 ming so'm (yoki 96,1%), Sirdaryo viloyatida 6092,3 ming so'm (yoki 98,6%) va Toshkent viloyatida 5910,8 ming so'm miqdorida (yoki 119,9%) qayd etildi. Investitsiya-qurilish jarayoni, uni tashkil qilish va samaradorligi. Investitsiya-qurilish jarayoni ijtimoiy ishlab chiqarishning eng muhim elementidir. Usiz takror ishlab chiqarishni tasavvur qilish mumkin emas. Bundan kelib chiqqan holda vaqtda o' Ichanadigan investitsiya jarayoni quyidagi formula orqali aniqlanishi mumkin:

$Tip = T1 + T2 + T3 + T4$

Qurilish jarayoni - investitsiya jarayoni hamda qurilishning xalq xo'jaligining bir tarmog'i sifatida faoliyat ko'rsatishining asosiy bosqichidir. Uning tashkiliy

tizimi uch bosqichdan iboratdir: qurilishni tayyorlash ,bevosita qurilish jarayonining o'zi, tayyor qurilish mahsulotini realizatsiya qilish. Qurilishni tayyorlash qurilish obyektining maqsadga muvofiqligini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA), obyektning loyihalash va qurilishga injener- texnik tayyorgarlik ko'rishdan iborat. Ushbu yo'nalishlarning har biri o'zining maqsadli vazifalariga ega. Qurilish investitsiya jarayonining o'zagidir. Obyektlarni, ayniqsa sanoat qurilish obyektlarini qurishda u jami investitsiya siklining 50 foizi va undan ko'p qismini egallaydi. Masalan, amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, o'rtacha quvvatli mashinasozlik korxonasini qurishda, turli tadqiqotlar asoslashlarga o'rtacha 1-1,5 yil ketadi, loyiha ishlab chiqishga – 1 yilgacha, qurilishga 3-4 yil, foydalanishga topshirish va sinab ko'rishga esa kamida yarim yil ketadi. Shunday qilib, o'rtacha quvvatli korxonani qurishga ketadigan investitsiya jarayonining muddati taxminan 5-7 yilni tashkil qiladi. Shunday qilib, quyidagilar investitsiya obyektlari hisoblanadi:

- 1.Qurilayotgan, rekonstruksiya yoki kengaytirilayotgan korxonalar, binolar, Inshootlar (asosiy fondlar)
- 2.Davlat va hududlar miqyosidagi dasturlar;
- 3.Qimmatli qog'ozlar.

Investitsiyalar mahsulotlarni (resurslar, xizmatlar) va uning elementlari (bosqichlari)ni yaratishda to'liq ilmiy-texnik va ishlab chiqarish davrlarini qamrab olishi mumkin: ilmiy tadqiqotlar, loyiha-konstruktorlik ishlari, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish yoki rekonstruksiya qilish, yangi ishlab chiqarishni yoki yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish, utilizatsiya va hokazo. Investitsiya obyektlari quyidagilar:Loyiha ko'lami,Loyihaning yo'nalishi,Investitsion siklning tavsifi va mazmuni, Davlat ishtiroki tavsifi va darajasi; Qo'yilgan mablag'lardan foydalanish samaradorligi bo'yicha tasniflanadi. Ushbu maqsadlar uchun har bir aniq loyihani belgilaydigan to'rtta asosiy omil(tasniflash mezonlari) mavjud:

- 1.Loyiha ko'lami(hajmi);
- 2.Amalga oshirish muddatlari; 3.Tabiat.
- 4.Resurslar cheklanganligi.

"Oddiy" loyihalarda ushbu omillar ko'p yoki kam darajada teng deb hisoblanadi. Shu bilan birga, omillardan biri ko'proq ustunlikka ega bo'lib, alohida e'tiborni talab Qilsa, boshqa omillar ta'siri esa nazorat jarayonlari tufayli pasaytiriladi. Ko'lami nuqtai nazardan loyihalar kichik va megaloyihalarga bo'linadi. Kichik loyihalar, loyihalash va uni amalga oshirish, loyiha komandasini shakllantirish jarayonida bir qator soddalashtirishlarni ta'minlaydi. Shu bilan birga, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishdagi qiyinchiliklar loyihaning hajmiy xususiyatlarini aniqlashni, loyiha ishtirokchilari va ularning ish uslublari, loyiha jadvallari va hisobot shakllari hamda shartnoma shartlarini juda aniq belgilashni talab qiladi.



Xulosa

Moliya nazariyasida esa investitsiya deganda real yoki moliyaviy aktivlarni olish tushuniladi, ya'ni bugungi sarf-xarajatlarning maqsadi kelajakda daromad olishdir. Demak, bizningcha, "Investitsiyalar bo'sh turgan kapitalni iqtisodiy- ijtimoiy samara olish maqsadida harakatga keltirishdir". Bizga ma'lumki, iqtisodiy o'sish investitsiya resurslarisiz bo'lishi mumkin emas, bu resurslar o'z mohiyati bilan ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan mablag'dir. Pul mablag'lari shaklidagi investitsiyalar nominal investitsiyalardir. Bu investitsiyalar moddiylashib, amalda ishlab chiqarishga jalb etilgandan so'ng real investitsiyalarga aylanadi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.G'aybullayevna, R. S. ., & Musurmangulov. (2024). QURILISHDA SAMARALILIKNI TA'MINLASHDA VAQTNI BOSHQARISHNING AHAMIYATI. IQTISODIYOT, TURIZM VA XIZMAT JURNALI, 3(1), 28-31.
- 2.G'aybullayevna, R. S. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTNING BUGUNGI DUVARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLARI. IQTISODIYOT, TURIZM VA XIZMAT JURNALI, 2(12), 38-42.
- 3.Sharifa, R. va Ilyos, T. (2023). BOSHQARUVDA ILMIY BOSHQARUV PRINSIPLARI. Ta'lim yangiliklari: 21-asrda tadqiqotlar, 2(16), 1097-1100.
- 4.Sharifa, R. va Sayyora, M. (2023). BOSHQARUVNING PAYDIYOTI TARIXI VA UNING HOZIRGI O'RNI. Ta'lim yangiliklari: 21-asrda tadqiqotlar, 2(16), 1093-1096.
- 5.Sharifa, R. (2023). HUDUDLARDA INVESTITSIYA JALBATLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI. Ta'lim yangiliklari: 21-asrda tadqiqotlar, 2(16), 1088-1092.
- 6.Sharifa, R. va Nozima, T. (2023). RABOBOT SHARTLARIDA SIFATNI BOSHQARISH - KORXONA MUVAFFAQIYATINING ASOSIY OMILLI. ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINA ILMIY YONDASHISH, 2(20), 200-203.
- 7.Sharifa, R. va Mahliyo, K. (2023). KORXONALARNING TASHKILIY TUZILISHI VA ULARNING KO'RIYATI. IQTISODIYOT, TURIZM VA XIZMAT JURNALI, 2(5), 77-83.
- 8.G'aybullayevna, R. S. (2023). AYOLLAR TADBIRKORLIGI MAMLUKATIMIZ IQTISODIY FAROVONLIGI VA IJTIMOY RIVOJLANISHINI OSHIRISH OMILI. IQTISODIYOT, TURIZM VA XIZMAT JURNALI, 2(5), 73-76.
- 9.G'aybullayevna, R. S. (2023). INVESTITSION FAOLIYATINI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING ZAMONAVIY ASOSLARI. IQTISODIYOT, TURIZM VA XIZMAT JURNALI, 2(5), 51-54.
- 10.G'aybullaevna, R. S. (2023). Qurilishga qo'yilgan sarmoyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari. Yevropa oliy ta'lim va akademik taraqqiyot jurnali, 7(1), 95-98



TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	SIRDARYO VILOYATIDA YER RESURLARINING DINAMIK O'ZGARISHLARI Bobojonov Nurimon Shaxriyor-o'g'li	3
2.	DEDEKTIV ASARLAR MAZMUN VA MOHIYATI Xolmirzayeva Diyora Xatamboy qizi	6
3.	LINGUISTIC FEATURES OF THE SHAHRIKHAN DIALECT Islomov Ibratjon Inomjon o'g'li	11
4.	Оценка физической подготовленности и технико- тактических действий борцов на поясах Мирзабеков Иброхимжон Адхамжон ўғли	13
5.	- ОЗОН ҚАТЛАМИНИ ЕМИРИЛИШИНИНГ ИНСОН САЛОМАТЛИГИГА ТАЪСИРИ Усмонов Азизбек ХХХ	18
6.	SONLAR TARIXI XUSUSIDA Abdirayimov Anvarjon Oribjon o'g'li	21
7.	BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITLARIDA INVESTITSIYA SIYOSATINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI Rasulova Sharifa Gaybullaevna Baxromova Bonu Tolmas qizi	24